

Bibliografik va havola apparati: ilmiy iqtibos va havolalar standarti

Madumarova Sitora Anvar qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Huquqni sohalararo o'rganish fakulteti uslubchisi

Berdiyeva Sevinch Aliddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi mutxassisligi magistranti

Abstract: This article provides detailed information on the various citations used in articles and dissertations during scientific research and their types, the importance of their use, international standards and bibliographic apparatus used in research materials, requirements for it, international and Uzbek requirements and standards, the procedure for using this list of used literature and its importance, analyzes the problems and makes suggestions.

Keywords: bibliographic apparatus, reference apparatus, scientific citation, source citation, APA style, GOST standard, scientific ethics, source registration, dissertation requirements, Uzbek standards, international standards, scientific research, list of literature.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilmiy tadqiqot davomidagi maqolalar va dissertatsiyalarda qo'llaniladigan turli iqtiboslar va ularning turlari, ulardan foydalanishning ahamiyati, xalqaro standartlari va tadqiqot materiallarida foydalaniladigan bibliografik apparat, unga qo'yiladigan talablar, xalqaro va O'zbekiston miqyosidagi talab va standartlar va bu foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan foydalanish tartibi va uning ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berilib, muammolar tahlil qilib, takliflar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: bibliografik apparat, havola apparati, ilmiy iqtibos, manba keltirish, APA stili, GOST standarti, ilmiy etika, manbalarni rasmiylashtirish, dissertatsiya talablari, O'zbekiston standartlari, xalqaro standartlar, ilmiy tadqiqot, adabiyotlar ro'yxati.

Ilmiy tadqiqot dunyosi o'zining maxsus qismlari va terminlaridan iborat ekanligi hech kimga sir emas. Bakalavr davrida endigina ilmiy maqola yozishni boshlagan yosh talaba yoki hech qanday ilmiy tadqiqot dunyosi haqida tasavvurga ega bo'lmasdan magistraturada izlanishni boshlagan tajribasiz magistrantning har biri duch keladigan ommabop muammolardan biri bu tadqiqot materiallarida iqtibos, havola va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan to'g'ri foydalanishdir. Yuqorida ko'rsatilgan har bir toifa bu vositalar bilan o'zining faoliyati davomida bir marta bo'lsa-da, muammoga duch kelgan bo'lishi tabiiy. Iqtibos turini ajrata olmaslik, qanday iqtibos keltirishni bilmaslik yoki keltirilgan iqtibos havolasini to'g'ri tadqim eta olmaslik, yohud tadqiqot materialida talab qilgan uslubda havola uslubidan foydalana olmaslik kabi "trend"dagi xatolar shular jumlasidan desam adashmagan bo'laman.

O'zi iqtibos, havola va bibliografik ro'yxat nima degani?

Har bir ilmiy ishda iqtibos (citation), havola (reference) va adabiyotlar ro'yxati (bibliography) tushunchalari muhim o'rin tutadi. Ular bir-biriga yaqin bo'lsa-da, vazifasi va qo'llanish sohasi jihatidan farq qiladi.

Iqtibos (Citation) — bu tadqiqot matni ichida boshqa muallifning g'oyasi, fikri yoki ma'lumotidan foydalangan holda, uning manbasi haqida qisqa ma'lumot berib, muallifning akademik tadqiqotini boshqa manba bilan to'ldirish hamda ilgari surilayotgan fikrni isbotlash uchun boshqa

fikrlar tahlili orqali ishonchli taklifni taqdim etish shaklidir. Iqtibosning asosiy maqsadi — ma'lumotning manbasini aniq ko'rsatish va plagiatdan saqlanishdir. Odatda u muallifning familiyasi va nashr yili ko'rinishida yoziladi. Masalan, (Karimov, 2021) yoki [1]. Iqtibos o'quvchiga matnda berilgan fikrning qayerdan olinganini tez aniqlash imkonini beradi.¹

Havola (Reference) — bu ish oxirida joylashadigan, matnda keltirilgan har bir iqtibos uchun to'liq bibliografik ma'lumotni o'z ichiga olgan ro'yxatdir. Har bir iqtibos havola ro'yxatidagi bitta yozuvga mos keladi. Havolalar o'quvchiga manbani mustaqil topish va tekshirish imkonini beradi. Ular odatda muallif, nashr yili, maqola yoki kitob nomi, nashriyot yoki jurnal ma'lumotlari, DOI yoki URL kabi elementlardan iborat bo'ladi.²

Adabiyotlar ro'yxati (Bibliography) esa tadqiqot davomida o'rganilgan yoki foydalanilgan barcha manbalarni qamrab oladi. Bibliografiyada faqat iqtibos keltirilgan asarlar emas, balki mavzuga aloqador, lekin matnda bevosita ishlatilmagan ilmiy manbalar ham kiritiladi. Ba'zi xalqaro formatlarda (masalan, APA uslubida) faqat iqtibos qilingan manbalar "References" bo'limiga kiritilsa, boshqa formatlarda (masalan, Chicago yoki Oxford) "Bibliography" alohida bo'lim sifatida talab etiladi.³

Shunday qilib, iqtibos — matn ichidagi ishora, havola — iqtibosga mos to'liq manba ma'lumoti, bibliografiya esa barcha o'rganilgan adabiyotlar to'plamidir. Yuqorida sanab o'tilgan barcha qismlarning har birining o'ziga xos ahamiyati va muhimlik darajasi bo'lib, ular tadqiqot mahsulotini yana ishonchli va samarali qilishda xizmat qiladi.

Odatda biror ilmiy material yozilayotgan vaqtda iqtibos bilan yuzagan keladigan eng ommabop xatolik bu uni qanday qo'llashni bilmaslik. Uchinchi bosqich bakalavr vaqtimda endi tadqiqot materiali yozishni o'rganganimda matnda "Iqtibos keltirish ilmiy maqolalar va dissertatsiyalarni yozishda muhim vosita hisoblanadi." (Sharipov Salim Salomovich, 2024) singari ma'lumot keltirish iqtibosning bir ushuli ekanligini bilmaganman. Xatto ancha vaqtgacha buni tushunmanganim uchun bu uslubdan foydalanmasdan yurganman.

Akademik maqola yozayotganda, plagiatdan qochish va maqolaga yoki ishga munosib baho berish uchun manbalari to'g'ri keltirish muhimdir. Ammo juda ko'p iqtibos turlari borligi uchun qaysini birini ishlatish chalkash bo'lishi mumkin. APA, MLA, Chicago yoki boshqa formatlarning har biri iqtibos uslubi, manbalarga havola qilish borasida o'z qoidalariga ega.

Shundan kelib chiqib, iqtiboslar ham bir necha turlarga bo'linadi. Iqtibos uslublari — bu ilmiy yoki publisistik ishda foydalanilgan manbalarni tartibli va yagona shaklda ko'rsatish uchun ishlab chiqilgan **standart qoidalar to'plami**. Har bir iqtibos uslubi matn ichidagi iqtiboslar, bibliografiyalar va havolalar ro'yxatini formatlash bo'yicha o'z qoidalariga ega.

Har bir fan uchun o'ziga mos iqtibos uslubi mavjud, chunki har bir yo'nalishda ma'lumotni ifodalash usuli yoki qaysidir ma'lumotga urg'u berishi farq qiladi. Masalan, ijtimoiy fanlarda ko'p ishlatiladigan APA uslubi manbaning yili va muallifiga urg'u beradi, gumanitar fanlarda esa MLA uslubi matn va muallif o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratadi.

¹ Purdue Online Writing Lab. (2024). *In-text citations: The basics*. Purdue University.

https://owl.purdue.edu/owl/research_and_citation/apa_style/apa_in_text_citations.html

² American Psychological Association. (2020). *Publication manual of the American Psychological Association* (7th ed.). Washington, DC: APA. <https://apastyle.apa.org/products/publication-manual-7th-edition>

³ University of Leeds Library. (2023). *Reference lists vs bibliographies*.

https://library.leeds.ac.uk/info/14011/referencing/47/reference_lists_vs_bibliographies

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-1

Tadqiqot dunyosida bugungi kunda 3 ta ommaviy iqtibos yo‘nalishlari bo‘yicha bir qancha turlari mavjud. Bular **parenthetical** – qavs ichidagi iqtibos (Manba matn ichida qavs bilan ko‘rsatiladi, masalan: (Karimov, 2023)), **numerical** – raqamli iqtibos (manba matnda tartib raqami bilan belgilanadi, masalan: [1] yoki ¹), **note-based** – izohli iqtibos yoki pastki izoh shaklidagi iqtibos (matnda raqam bilan belgilanadi va sahifaning pastida yoki ish oxirida to‘liq ma’lumot beriladi.). Bu yo‘nalishlar ham bir qancha turlarga bo‘linadi.

Iqtibosni yo‘nalishlar bo‘yicha turlari

1-ilova⁴

No	Yo‘nalishi	Turlari
1.	Parenthetical	<ul style="list-style-type: none"> • APA • MLA • Chicago author-date • Harvard • ASA • AAA
2.	Numerical	<ul style="list-style-type: none"> • IEEE • AMA • ACS • Vancouver
3.	Note-based	<ul style="list-style-type: none"> • Chicago notes and bibliography • Bluebook • OSCOLA

1. Parenthetical - Qavs ichidagi iqtiboslar, eng keng tarqalgan yo‘nalishdir. Ushbu yondashuvda manba haqidagi ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri matnga kiritiladi. Odatda, bunda muallifning familiyasini va manbaning nashr etilgan sanasini qavs ichiga qo‘yiladi.

Shuningdek bu yo‘nalishda agar tegishli bo‘lsa, sahifa raqamini ham qo‘shilishi mumkin. Masalan: (Louis, 2020, 45-bet). Ba‘zan, nashr etilgan sanani qoldirilib, faqat muallif va sahifa raqamini ishlatilishi mumkin, (Louis, 45-bet).

a) APA - bu uslub Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasining nashriyot qo‘llanmasining 7-nashrida bayon etilgan. 20-asrning boshlarida, ayniqsa psixologiya uchun paydo bo‘lgan. Ushbu uslub hozirda ko‘plab sohalarda, ayniqsa ijtimoiy fanlarda ommabop qo‘llanilishi bilan mashhur bo‘lib bormoqda.

• Foydalanilgan manbani bibliografiyada yozish tartibi

Watanabe, S., & Iqbal, R. (2022). Exploring the nuances of cultural psychology: A global perspective. Academic Press.

• Matn ichidagi iqtibos namunasi (Watanabe & Iqbal, 2022, p. 45)

⁴ CollegeEssay.org. (2024, November 19). A Guide to Citation Styles with Examples and Uses. Retrieved January 7, 2025, from <https://collegeessay.org/blog/citation-styles>

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-1

b) MLA - Modern Language Association uslubi, hozirda 9-nashrida (2021-yilda nashr etilgan), asosan gumanitar fanlarda, xususan, adabiyot, falsafa va madaniyatshunoslikda qo‘llaniladi. Ushbu uslub manbalarni keltirishning oson yo‘lini taqdim etish va ilmiy munozaralarni rag‘batlantirishga qaratilgan.

Muallif sahifasidagi iqtiboslarga urg‘u berilishi o‘quvchilarga manba materialini tezda topish imkonini beradi.

• Foydalanilgan manbani bibliografiyada yozish tartibi Vasilevsky, L., & Choudhury, S. (2023). Narrative theory in contemporary literature. Routledge.

• Matn ichidagi iqtibos namunasi (Vasilevsky and Choudhury 78)

c) Harvard - Harvard uslubi o‘zining moslashuvchanligi bilan mashhur va biznes, ijtimoiy fanlar va gumanitar fanlar kabi turli sohalarida qo‘llaniladi. U vaqt o‘tishi bilan rivojlanib, turli sohalaridagi olimlarga uning asosiy tamoyillarini o‘z ehtiyojlariga moslashtirish imkonini berdi.

• Foydalanilgan manbani bibliografiyada yozish tartibi Al-Mansoori, A., & Patel, J. (2024). Innovative strategies in business management. Oxford University Press.

• Matn ichidagi iqtibos namunasi (Al-Mansoori & Patel, 2024)

2. Numerical - ushbu tizim manbaga havola qilish uchun qavs ichidagi oddiy raqamdan yoki yuqori indeksdan foydalanadi. Masalan: “Bu nazariya keng qabul qilingan [1]”. Bu raqam ish oxiridagi raqamlangan havolalar ro‘yxatidagi ma‘lum bir yozuvga mos keladi.

3. Note-based – bunda izohlarga iqtibos keltirishda to‘liq iqtibosni izohda taqdim etiladi, bu matnda yuqori indeks raqami yoki belgisi bilan ko‘rsatiladi. Masalan: "Ushbu tadqiqot muhim topilmalarni ta‘kidlaydi!". Keyin o‘quvchi to‘liq ma‘lumot uchun izohga qarashi mumkin.

Yo‘nalish kesimidagi turlar va ularning o‘ziga xosligi

2-ilova

No	Yo‘nalish	Tur
1.	Economics	Harvard
2.	Engineering & IT	IEEE
3.	Humanities	Chicago notes and bibliography; Harvard; MLA
	Law	Bluebook; OSCOLA
	Medicine	AMA; NLM; Vancouver
	Political science	APSA
	Psychology	APA
	Sciences	ACS; Chicago author-date; CSE citation-name or citation-sequence; CSE name-year; Harvard
	Social sciences	AAA; APA; ASA; Chicago author-date

O‘zbekistonda ilmiy ishlar O‘zbekiston Standartlashtirish, Metrologiya va Sertifikatlashtirish agentligi (“O‘zstandart” agentligi)ning 2018-yil 14-iyundagi 05-964-son qarori bilan O‘z DSt

1985:2010 o‘rniga tasdiqlangan va amalga kiritilgan GOST (Davlat standartlari)⁵ asosida iqtibos va havola kiritish, adabiyotlar ro‘yxatini shakllantirish ishlari amaga oshiriladi. Bu standart — **O‘z DSt 7.1:2006 “Bibliografik yozuv. Bibliografik tavsif. Umumiy talablar va tuzish qoidalari”** nomi bilan tasdiqlangan bo‘lib, Rossiyaning GOST 7.1–2003 standartiga asoslanadi. Xususan, O‘zbekistondagi davlat oliy ta‘lim muassasalarida ham⁶ tadqiqot ishlari, magistratura dissertatsiyalaridagi bu uchala qismlar ham shu standartlar talabalari asosida yozilishi talab qilinadi.

GOST uslubi — bu O‘zbekiston va MDH davlatlarida ilmiy ishlarda foydalaniladigan **davlat standartini asosidagi iqtiboslash tizimidir**. U Rossiyaning **GOST 7.1–2003** standartiga asoslanib, O‘zbekistonda **O‘z DSt 7.1:2006** nomi bilan tasdiqlangan.

GOST uslubi ilmiy ishlarda iqtibos keltirishning yagona tartibini belgilaydi. Ushbu uslubda manbalar raqamli tartibda ko‘rsatiladi. Har bir manbaga matn ichida tartib raqami beriladi, masalan, [1], [2], [3]. Bu raqamlar “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”dagi tegishli manbalarga mos keladi.

Manbalar ro‘yxati alifbo tartibida emas, balki matnda uchrash ketma-ketligiga muvofiq yoziladi. Har bir manba yozuvida muallifning familiyasi va initsiallari, asar nomi, nashr joyi, nashriyot nomi hamda nashr yili keltiriladi. Masalan: [1] Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma‘naviyat, 2008; [2] Ziyodova N. A. Ilmiy maqola yozish metodikasi. Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.

GOST uslubining yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, unda pastki izohlar (footnote) ishlatilmaydi. Barcha havolalar faqat matn ichida raqam orqali beriladi. Bundan tashqari, har bir manba turi alohida belgilanadi. Masalan, kitob, maqola, qonun, internet manbasi kabi turlar tegishli ko‘rsatkich bilan ajratiladi: [Elektron resurs], [Qonun hujjati], [Monografiya] va boshqalar. Bu yondashuv ilmiy matnning aniqligi va tartibligini ta‘minlaydi, shuningdek, iqtibos keltirishda tizimlilik va yagona standartni saqlash imkonini beradi.

Shuningdek, O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan ba‘zi xalqaro oliy ta‘lim muassasalaridan ichki nizom va tartib qoida, rivojlanish rejalari va boshqa hujjatlar asosida APA yoki Harvard uslubidagi iqtibos berish uslublaridan foydalanishlari mumkin.

Xususan, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan Westminster International University in Tashkent (WIUT) talabalari, o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlari, esse, maqola va magistirlilik dissertatsiyalarida **Westminster Harvard referencing style** dan foydalanadilar. Bu uslub — Buyuk Britaniyadagi Westminster universiteti tomonidan ishlab chiqilgan **Harvard iqtiboslash tizimining o‘ziga xos talqini** hisoblanadi. Bu uslub WIUTdagi hamma fakultetlarda, ayniqsa, Business, Media va Economics yo‘nalishlarida majburiy hisoblanadi. Faqat huquq (Law) sohasidagi ishlar uchun OSCOLA (Oxford University Standard for the Citation of Legal Authorities) uslubi qo‘llaniladi⁷.

Masalan: Smith, J. (2020) Media and Society. London: Routledge.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi. *O‘z DSt 7.1:2006 — Bibliografik yozuv. Bibliografik tavsif. Umumiy talablar va tuzish qoidalari*.

⁶ Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. *Ilmiy ishlarni rasmiylashtirish bo‘yicha metodik ko‘rsatma*, Toshkent, 2022.

⁷ Westminster International University in Tashkent. *Citation and Referencing Guide*.

<https://rc.wiut.uz/Home/CitationAndReferencingGuide>

GOST uslubining boshqa uslublardan farqi

3-ilova

Belgilanishi	GOST	APA	Harvard	Chicago
Matn ichidagi iqtibos	Raqam bilan [1]	(Karimov, 2023)	(Karimov 2023: 25)	(Karimov 2023, 25) yoki footnote
Ro'yxat tartibi	Raqam bo'yicha	Alifbo bo'yicha	Alifbo bo'yicha	Alifbo bo'yicha
Asosiy yo'nalish	Texnik, ilmiy, davlat ishlarida	Ijtimoiy fanlar	Iqtisod, biznes	Tarix, huquq, san'at
Ko'rinishi	Rasmiy, qat'iy formatda	Qisqa va sodda	Yengil, akademik	Izohli va batafsil

Akademik matnlar yoki matnlar bilan ishlash jarayonida iqtibos keltirishning ikkita uslubi bo'lganligi uchun qaysi birini qachon foydala ish kerak degan savol tug'iladi. Yuqorida ta'kidlaganimdek, ba'zan biri yetarli degan xulosalar ham chiqishi sir emas. Ammo ilmiy matnlarda manba bilan ishlashda to'g'ridan-to'g'ri iqtibos va parafraz (o'z so'zlari bilan ifodalash) o'rtasidagi farq aniq belgilangan. To'g'ridan-to'g'ri iqtibos muallifning fikrini aynan, o'z shaklida keltirishni anglatadi. U ilmiy aniqlik, dalillilik yoki muallifning muhim g'oyasini buzmasdan yetkazish zarur bo'lgan holatlarda qo'llaniladi. Bunday iqtiboslar odatda qo'shtirnoq ichida beriladi va manba raqami yoki muallif ismi bilan birga ko'rsatiladi. Parafraz esa muallifning fikrini o'z so'zlari bilan qayta yozish bo'lib, asosan matnni soddalashtirish, umumlashtirish yoki tahliliy izoh berishda qo'llaniladi.

GOST uslubida to'g'ridan-to'g'ri iqtibos keltirilganda manba raqami kvadrat qavs ichida yoziladi, masalan, [1]. Iqtibos matni aniq belgilanadi, qo'shtirnoq ichida beriladi va zarur vaziyatda ellipsis yoki qavs orqali qisqartirishlar ko'rsatiladi. Parafraz esa iqtibos shaklida emas, balki muallifning g'oyasini o'zgartirmagan holda, o'z so'zlari bilan ifodalangan matn bo'lib, oxirida manba raqami bilan havola beriladi. Bu yondashuv GOST standartining asosiy talabi bo'lgan aniqlik, manba ishonchliligi va tartiblilikni ta'minlaydi.

APA, MLA yoki Chicago kabi boshqa uslublarda esa iqtibos va parafrazda manba keltirish shakli farq qiladi. Masalan, APA uslubida iqtibosdan so'ng muallifning familiyasi, nashr yili va sahifa raqami qavs ichida ko'rsatiladi: (Karimov, 2008, p. 45). Chicago Author-Date tizimida ham shunga o'xshash tartib amal qiladi, biroq bibliografiyada to'liq manba keltiriladi. MLA uslubida esa sahifa raqami muallif familiyasidan keyin, yil ko'rsatilmasdan yoziladi: (Karimov 45).

Demak, GOST tizimi iqtiboslarni raqamli tartibda, manba ketma-ketligiga muvofiq berishni talab qiladi, boshqa xalqaro uslublar esa muallif-yil yoki muallif-sahifa ko'rsatkichlari orqali ishlaydi. Shuning uchun GOST uslubida iqtiboslar soddaroq va tizimli, APA va Chicago uslublarida esa muallif ijodiga urg'u kuchliroq bo'ladi.

Har bir manbaga to'liq bibliografik ma'lumot keltirilishi lozim. Bu o'quvchiga manbani mustaqil topish va tekshirish imkonini beradi. Havola apparati to'liq bo'lishi uchun quyidagi elementlar aniq ko'rsatiladi: muallifning familiyasi va initials, asar sarlavhasi, nashr joyi, nashriyot nomi, nashr yili hamda sahifa raqami.

GOST uslubida bibliografik ma'lumotlar qat'iy tartibda beriladi. Har bir manba matnda raqam bilan belgilanadi va "Foydalanilgan adabiyotlar" ro'yxatida ularning tartibi matnda uchragan ketma-

ketlik asosida joylashtiriladi. Bu tizimda alifbo bo'yicha ketma-ketligi emas, balki manbadan foydalanish tartibi muhim hisoblanadi.

GOST talablariga ko'ra, har bir manba quyidagi majburiy elementlarni o'z ichiga oladi: muallifning familiyasi va initsiali, asar nomi, nashr joyi, nashriyot nomi va nashr yili. Masalan:

- [1] Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
[2] Ziyodova N. A. Ilmiy maqola yozish metodikasi. Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.

Agar iqtibos to'g'ridan-to'g'ri matndan keltirilsa yoki muallifning fikriga aniq murojaat qilinsa, sahifa raqamini ko'rsatish tavsiya etiladi. Masalan, matn ichida quyidagicha ko'rsatiladi: "Yuksak ma'naviyat har bir insonning ma'naviy poydevoridir" [1, 45-b.].

Agar manbadan umumiy g'oya olinib, parafraz shaklida bayon etilsa, sahifa raqamini keltirish shart emas: Ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida ko'riladi [1].

GOST uslubining o'ziga xos jihati — bu izchillik, aniqlik va manbalarni tizimli tartibda berishidir. Xalqaro tizimlardagi kabi (APA, MLA, Chicago) muallif va sahifa raqamiga urg'u berish emas, balki manbani raqamli tartibda ko'rsatish orqali qulay izlash imkoniyatini yaratish maqsad qilangan. Shu boisdan, GOST tizimi asosan postsovet hududidagi ilmiy ishlar, dissertatsiyalar va hisobotlarda keng qo'llaniladi.

APA, MLA va Chicago kabi xalqaro tizimlarda esa sahifa raqami ko'pincha majburiy sanaladi, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri iqtiboslar uchun. APA uslubida muallif, nashr yili va sahifa raqami har doim birga ko'rsatiladi: (Karimov, 2008, p. 45). MLA tizimida yil emas, balki muallif familiyasi va sahifa raqami majburiy hisoblanadi: (Karimov 45). Chicago tizimida esa ikki variant mavjud: "footnote" tizimi va "author-date" tizimi. Har ikkala holda ham muallif, nashr yili va sahifa raqami aniq keltiriladi.

Shunday qilib, GOST tizimi manbani tartibli va rasmiy shaklda taqdim etishni ta'minlasa, xalqaro uslublar matndagi aniqlik va manbani tezda aniqlash imkoniyatiga urg'u beradi. Havola apparatining to'liq va aniq bo'lishi ilmiy ishonchlikning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Bibliografik va havola apparatini to'g'ri tuzish ilmiy ishning asosiy talabi hisoblanadi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida, xususan, magistrlik dissertatsiyalarida GOST standarti asosiy havola tizimi sifatida qo'llaniladi. Bu tizim manbalarni raqamli tartibda keltirish orqali iqtiboslarni izchil, aniq va yagona shaklda ifodalash imkonini beradi. GOST uslubi ilmiy ishlarning rasmiyligini ta'minlaydi va barcha ma'lumotlar yagona formatda berilishiga xizmat qiladi.

Iqtibos keltirishda to'g'ridan-to'g'ri iqtibos va parafraz o'rtasidagi farq muhimdir. To'g'ridan-to'g'ri iqtibos muallif fikrini o'z holicha saqlaydi va sahifa raqami bilan ko'rsatiladi, parafraz esa muallif g'oyasini talabning o'z so'zlari bilan qayta ifodalaydi. GOST talablariga ko'ra, iqtibos aniq manbaga asoslangan bo'lishi, parafraz esa g'oyaviy tomondan izchil bo'lishi lozim.

Havola apparatining to'liqligi va aniqligi esa ilmiy halollik mezonidir. Muallifning ismi, asar nomi, nashr joyi, nashriyot va yili majburiy elementlar hisoblanadi, sahifa raqami esa asosan to'g'ridan-to'g'ri iqtibosda tavsiya etiladi. Shu orqali o'quvchi yoki tadqiqotchi har bir ma'lumot manbasini osongina topa oladi.

Magistr sifatida shunday xulosa qilish mumkinki, GOST tizimi ilmiy faoliyatda tartib, izchillik va aniqlikni ta'minlaydigan eng qulay va ishonchli standart deb aytish mumkin. Bu tizim iqtiboslarning yagona shaklda berilishini ta'minlab, dissertatsiyalar va ilmiy ishlarda axborot madaniyatini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Purdue Online Writing Lab. (2024). In-text citations: The basics. Purdue University. https://owl.purdue.edu/owl/research_and_citation/apa_style/apa_in_text_citations.html
2. American Psychological Association. (2020). Publication manual of the American Psychological Association (7th ed.). Washington, DC: APA. <https://apastyle.apa.org/products/publication-manual-7th-edition>
3. University of Leeds Library. (2023). Reference lists vs bibliographies. https://library.leeds.ac.uk/info/14011/referencing/47/reference_lists_vs_bibliographies
4. CollegeEssay.org. (2024, November 19). A Guide to Citation Styles with Examples and Uses. Retrieved January 7, 2025, from <https://collegeessay.org/blog/citation-styles>
5. O'zbekiston Respublikasi Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi. O'z DSt 7.1:2006 — Bibliografik yozuv. Bibliografik tavsif. Umumiy talabalar va tuzish qoidalari.
6. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Ilmiy ishlarni rasmiylashtirish bo'yicha metodik ko'rsatma. Toshkent, 2022
7. Westminster International University in Tashkent. Citation and Referencing Guide. <https://irc.wiut.uz/Home/CitationAndReferencingGuide>
8. Modern Language Association. MLA Handbook (9th ed.). <https://style.mla.org>
9. Citation and references in scientific papers. SPUBL. Available at: <https://spubl.pl/en/blog/citation-and-references-in-scientific-papers>
10. Scientific Style and Format. SSF Citation Quick Guide. Available at: <https://www.scientificstyleandformat.org/Tools/SSF-Citation-Quick-Guide.html#:~:text=Scientific%20Style%20and%20Format%20presents%20three%20systems%20for,citation-name.%20These%20abbreviated%20references%20are%20called%20in-text%20references>
11. Citations, references and bibliography in research papers: beginners guide. Researcher Life. Available at: <https://researcher.life/blog/article/citations-references-and-bibliography-in-research-papers-beginners-guide/>
12. A guide to different types of academic citation styles. Medium. Available at: <https://ashleymr38.medium.com/a-guide-to-different-types-of-academic-citation-styles-88b729fe48b7>
13. Citation styles. Scribbr. Available at: <https://www.scribbr.com/citing-sources/citation-styles/>